REFLEKSIV KOMPETENSIYANING XORIJIY VA O‘ZBEK TA’LIM TAJRIBASIDA TUTGAN O‘RNI

Jumayeva Azizabonu Mo‘min qizi,

Buxoro davlat pedagogika instituti 1-bosqich tayanch doktoranti

Annotatsiya: Maqolada refleksiv kompetensiyaning xorijiy mamlakatlar va O‘zbekiston oliy pedagogik ta’limi me’yoriy hujjatlarida tutgan o‘rni qiyosiy tahlil qilingan. Buyuk Britaniya, AQSH, Avstraliya, Finlyandiya, Yevropa Ittifoqi va Rossiya Federatsiyasining o‘qituvchi kasbiy standartlari hamda ta’lim standartlarida refleksiyaning qanday ifodalanishi o‘rganildi. Tahlil natijasida xorijiy standartlarda refleksiya o‘qituvchi faoliyatining aniq ko‘rsatkichi sifatida belgilangani, milliy me’yoriy hujjatlarda esa u faqat umumiy «o‘zini o‘zi rivojlantirish» kompetensiyasi tarkibida bilvosita aks etgani aniqlandi. Xorijiy tajribadan milliy malaka talablariga moslashtirish mumkin bo‘lgan yondashuvlar asoslandi.

Kalit so‘zlar: refleksiv kompetensiya, kasbiy standart, malaka talablari, qiyosiy tahlil, xorijiy tajriba, o‘qituvchi tayyorlash, o‘zini o‘zi rivojlantirish.

KIRISH: Oliy ta’lim tizimini xalqaro mezonlarga moslashtirish O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son Farmoni bilan tasdiqlangan konsepsiyaning ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilangan [1]. Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 31-dekabrdagi 824-son qarori bilan joriy etilgan kredit-modul tizimi esa milliy ta’lim dasturlarini Yevropa kredit tizimi bilan uyg‘unlashtirishni nazarda tutadi [2]. Bunday sharoitda xorijiy mamlakatlar o‘qituvchi tayyorlash tizimida qaysi kompetensiyalarni asosiy deb hisoblashini o‘rganish milliy malaka talablarini takomillashtirish uchun muhim ahamiyatga ega.So‘nggi o‘n yilliklarda refleksiya oliy ta’limda, ayniqsa o‘qitish va o‘rganish jarayonlarida keng

tarqalgan tamoyilga aylandi [16]. Yevropa Ittifoqi Kengashining 2018-yil 22-maydagi tavsiyasida hayot davomida ta’lim olish uchun zarur sakkiz tayanch kompetensiyadan biri — shaxsiy, ijtimoiy va o‘rganishni o‘rganish kompetensiyasi — aynan «o‘z-o‘zi haqida refleksiya qila olish qobiliyati» sifatida ta’riflanadi [3]. Bu refleksiv kompetensiyaning faqat nazariy tushuncha emas, balki xalqaro ta’lim siyosatining me’yoriy talabi ekanini ko‘rsatadi. Mazkur maqolaning maqsadi — refleksiv kompetensiyaning xorijiy mamlakatlar va O‘zbekiston pedagogik ta’limi me’yoriy hujjatlarida tutgan o‘rnini qiyosiy tahlil qilish hamda milliy malaka talablariga moslashtirish mumkin bo‘lgan yondashuvlarni aniqlashdan iborat. Tadqiqotda me’yoriy hujjatlarni qiyosiy tahlil qilish, kontent-tahlil va umumlashtirish usullaridan foydalanildi.

ASOSIY QISM. Xorijiy mamlakatlarda refleksiv kompetensiya, odatda, alohida nazariy tushuncha sifatida emas, balki o‘qituvchining kasbiy standartiga kiritilgan aniq faoliyat ko‘rsatkichi sifatida mustahkamlanadi. Shu sababli tahlil uchun o‘qituvchilar kasbiy standartlari va ta’lim standartlari tanlab olindi.

Buyuk Britaniya. Angliya Ta’lim vazirligi tomonidan 2011-yilda qabul qilingan «O‘qituvchi standartlari» (Teachers’ Standards) 4-standarti — «Yaxshi tuzilgan darslarni rejalashtirish va o‘tkazish» tarkibida o‘qituvchidan «darslar va o‘qitish yondashuvlarining samaradorligi haqida tizimli refleksiya qilish» talab etiladi [4]. Demak, refleksiya bu yerda ixtiyoriy sifat emas, balki o‘qituvchi attestatsiyadan o‘tishi uchun namoyon etishi shart bo‘lgan majburiy ko‘rsatkichdir.

Amerika Qo‘shma Shtatlari. Shtatlararo o‘qituvchilarni baholash va qo‘llab-quvvatlash konsorsiumi (InTASC) ishlab chiqqan model standartlarning 9-standarti — «Kasbiy o‘rganish va axloqiy amaliyot» o‘qituvchining o‘z amaliyotini dalillar asosida doimiy baholashi, ayniqsa o‘z tanlovi va harakatlarining boshqalarga ta’sirini tahlil qilishini talab etadi [5]. Standartning rivojlanish bosqichlarida refleksiya bosqichma-bosqich murakkablashadi: birinchi darajada o‘qituvchi o‘z ehtiyojlarini aniqlash uchun

refleksiya qiladi, yuqori darajada esa hamkasblari bilan birgalikda jamoaviy amaliyotni tahlil qiladi [5]. Bu refleksiv kompetensiyani darajalar bo‘yicha o‘lchash g‘oyasiga mos keladi.

Avstraliya. Avstraliya o‘qituvchilar kasbiy standartlarining (AITSL, 2011) 6-standarti — «Kasbiy o‘rganishda ishtirok etish» to‘rt yo‘nalishni o‘z ichiga oladi: kasbiy ehtiyojlarni aniqlash, kasbiy o‘rganish orqali amaliyotni takomillashtirish, hamkasblar fikri asosida amaliyotni yaxshilash va o‘rganish natijasini o‘quvchilar yutug‘iga bog‘lash [6]. Bitiruvchi darajasida bo‘lajak o‘qituvchidan rahbar va tajribali o‘qituvchilardan konstruktiv fikr olib, uni o‘z amaliyotini takomillashtirishda qo‘llash talab qilinadi [6]. Bunda «refleksiya» atamasi bevosita ishlatilmasa-da, standart mazmunan refleksiv sikl — tahlil, fikr olish va tuzatishga qurilgan.

Finlyandiya. Finlyandiyada o‘qituvchilik uchun magistr darajasi talab etiladi va o‘qituvchi tayyorlash tadqiqotga asoslangan model bo‘yicha tashkil etiladi [7]. Talaba magistrlik dissertatsiyasi doirasida o‘z tadqiqotini o‘tkazadi va tadqiqotchilik ko‘nikmalarini rivojlantiradi [8]. Ushbu modelda refleksiya alohida fan sifatida emas, balki tadqiqotchi-o‘qituvchi pozitsiyasining asosi sifatida butun ta’lim jarayoniga singdirilgan. Shu bilan birga, finlyandiyalik tadqiqotchilar ham nazariya va amaliyot aloqasiga hamda metakognitiv jihatlarga ko‘proq e’tibor qaratish zarurligini ta’kidlaydilar [8].

Rossiya Federatsiyasi. «Pedagogik ta’lim» yo‘nalishi bo‘yicha oliy ta’lim davlat standartida (FGOS VO 3++) universal kompetensiyalar tarkibida UK-6 kompetensiyasi — «o‘z vaqtini boshqarish, o‘z-o‘zini rivojlantirish trayektoriyasini belgilash va amalga oshirish» qobiliyati nazarda tutilgan [9]. Magistratura bosqichida (44.04.01) esa u «o‘z-o‘zini baholash asosida o‘z faoliyatining ustuvor yo‘nalishlari va uni takomillashtirish usullarini aniqlash va amalga oshirish» sifatida aniqlashtirilgan [9]. Rus pedagogikasida refleksiv kompetensiyani rivojlantirish masalasi alohida dissertatsiya tadqiqotlari ob’yekti bo‘lgan: Yu.V. Kusheverskaya uni pedagogik kollej

talabalari misolida [17], E.L. Ushakova esa kasbiy-pedagogik vaziyatlarni hal etish vositasi sifatida o‘rgangan [14].

O‘zbekiston tajribasi. Milliy ta’lim tizimida refleksiv kompetensiyaga yaqin tushuncha ilk bor umumiy o‘rta va o‘rta maxsus ta’limning 2017-yilda tasdiqlangan davlat ta’lim standartlarida «o‘zini o‘zi rivojlantirish kompetensiyasi» sifatida mustahkamlangan [11]. Oliy ta’limda esa O‘z DSt 3556:2021 «Oliy ta’limning davlat standarti. Asosiy qoidalar» malaka talablari, o‘quv rejalari va fan dasturlarini ishlab chiqishning yagona me’yoriy asosini belgilaydi [10]. Biroq ushbu hujjatlarda refleksiv kompetensiya mustaqil kompetensiya sifatida ajratilmagan va uni o‘lchash uchun alohida ko‘rsatkich yoki mezonlar keltirilmagan. O‘zbek pedagogika fanida refleksiya masalasi asosan kasbiy kompetentlik muammosi doirasida o‘rganilgan. N.A. Muslimov va hammualliflar pedagogik kompetentlikning tarkibiy qismlarini tahlil qilib, o‘qituvchining o‘z faoliyatini tahlil qilish qobiliyatini kasbiy mahoratning sharti sifatida ko‘rsatgan [15]. A.A. Xalikov bo‘lajak o‘qituvchilarda refleksiv kompetentlikni shakllantirish masalasini maxsus tadqiq etgan [12]. G.S. Akbarova refleksiv kompetensiya tushunchasining pedagogik va psixologik asoslarini yoritgan [13]. Mazkur tadqiqotlar muhim nazariy asos yaratgan bo‘lsa-da, ularda refleksiv kompetensiya mustaqil konstrukt sifatida darajalar bo‘yicha o‘lchanmagan va me’yoriy hujjatlarga kiritish taklifi ishlab chiqilmagan. Qiyosiy tahlil uchta asosiy farqni ko‘rsatadi. Birinchidan, xorijiy standartlarda refleksiya o‘qituvchi faoliyatining kuzatiladigan va baholanadigan ko‘rsatkichi hisoblanadi, milliy hujjatlarda esa u umumiy kompetensiya ichida qoladi. Ikkinchidan, AQSH tajribasida refleksiya darajalar bo‘yicha rivojlanadigan sifat sifatida tavsiflanadi; bu E.L. Ushakova taklif etgan adaptiv, pragmatik va integrativ darajalar g‘oyasiga mos keladi [14]. Uchinchidan, Finlyandiya tajribasi refleksiyani alohida topshiriq emas, balki butun o‘qituvchi tayyorlash jarayonining tadqiqotchilik asosi sifatida joriy etish mumkinligini ko‘rsatadi.

XULOSA Xorijiy tajriba refleksiv kompetensiyaning zamonaviy o‘qituvchi kasbiy profilining ajralmas qismi ekanini ko‘rsatadi: Buyuk Britaniya, AQSH va Avstraliya kasbiy standartlarida u baholanadigan faoliyat ko‘rsatkichi, Yevropa Ittifoqida tayanch kompetensiya ta’rifining tarkibiy qismi, Finlyandiyada esa tadqiqotga asoslangan o‘qituvchi tayyorlash modelining negizi hisoblanadi. O‘zbekiston me’yoriy hujjatlarida esa refleksiv kompetensiya faqat umumiy «o‘zini o‘zi rivojlantirish» kompetensiyasi tarkibida bilvosita aks etgan va uni o‘lchash mezonlari ishlab chiqilmagan. Tahlil asosida quyidagi takliflar ilgari suriladi: pedagogika ta’lim yo‘nalishi malaka talablariga refleksiv kompetensiyani alohida kompetensiya sifatida kiritish; InTASC tajribasi asosida uning rivojlanish darajalari va baholash ko‘rsatkichlarini milliy sharoitga moslab ishlab chiqish; Finlyandiya tajribasidan kelib chiqib, pedagogik amaliyot va bitiruv malakaviy ishlarida refleksiv tahlil bo‘limini majburiy qilish. Ushbu yondashuvlarni kredit-modul tizimi sharoitida amalga oshirish modeli keyingi tadqiqotlarimizning predmeti hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi «O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida»gi PF-5847-son Farmoni. – lex.uz/docs/-4545884.
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 31-dekabrdagi 824-son qarori. Ilova: «Oliy ta’lim muassasalarida o‘quv jarayoniga kredit-modul tizimini joriy etish tartibi to‘g‘risida Nizom». – lex.uz/docs/-5193564.
3. Council Recommendation of 22 May 2018 on Key Competences for Lifelong Learning. – Brussels: Council of the European Union, 2018. – URL: https://data.consilium.europa.eu/doc/document/ST-9009-2018-INIT/en/pdf.
4. Department for Education. Teachers’ Standards: Guidance for School Leaders,

School Staff and Governing Bodies. – London: DfE, 2011. – URL: https://www.gov.uk/government/publications/teachers-standards.

5. Council of Chief State School Officers. InTASC Model Core Teaching Standards and Learning Progressions for Teachers 1.0. – Washington, DC: CCSSO, 2013. – URL: https://www.pnw.edu/education-counseling/wp-content/uploads/sites/58/2020/07/InTASC_Standard_9-ADA.pdf.
6. Australian Institute for Teaching and School Leadership. Australian Professional Standards for Teachers. – Melbourne: AITSL, 2011. – URL: https://cdn.qct.edu.au/pdf/QCT_AustProfStandards.pdf.
7. Sahlberg P. Finnish Lessons: What Can the World Learn from Educational Change in Finland? – New York: Teachers College Press, 2011. – 167 p.
8. Maaranen K., Eklund G., Aspfors J. Master's thesis as part of research-based teacher education in Finland: Case study of two programs // NoAD. – 2026. – DOI: 10.57126/noad.2026.64519.
9. Федеральный государственный образовательный стандарт высшего образования – бакалавриат по направлению подготовки 44.03.01 Педагогическое образование (приказ Минобрнауки России от 22.02.2018 № 121); Образовательная программа 44.04.01 Педагогическое образование. – Казань: КФУ. – URL: https://kpfu.ru/pdf/portal/oop/317562.pdf.
10. O‘z DSt 3556:2021 «Oliy ta’limning davlat standarti. Asosiy qoidalar» (O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirining 2021-yil 19-oktabrdagi 35-2021-son buyrug‘i bilan tasdiqlangan). – jdpu.uz.
11. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 6-apreldagi «Umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limining davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida»gi 187-son qarori. – lex.uz/docs/-3153714.
12. Xalikov A.A. Bo‘lajak o‘qituvchilarda refleksiv kompetentlikni shakllantirish // Ilmiy maqola. – DOI: 10.5281/zenodo.7454785.

13. Akbarova G.S. Refleksiv kompetensiya tushunchasining pedagogik va psixologik asoslari // Pedagogs International Research Journal.
14. Ушакова Е.Л. Педагогические условия формирования рефлексивной компетенции будущих учителей как средства разрешения профессионально-педагогических ситуаций: дис. ... канд. пед. наук: 13.00.08. – Липецк, 2013. – 209 с.
15. Muslimov N.A. va boshq. Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari. – Toshkent: Sano-standart, 2015.
16. Tight M. Reflection: an assessment and critique of a pervasive trend in higher education // Higher Education Pedagogies. – 2023. – Vol. 8, No. 1. – DOI: 10.1080/21568235.2023.2193345.
17. Кушеверская Ю.В. Формирование рефлексивной компетентности студентов в образовательном процессе педагогического колледжа: дис. ... канд. пед. наук: 13.00.08. – Петрозаводск, 2007. – 190 с.